

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA USLUBIY YONDASHUV

M. Xushbaqova ¹
(Ilmiy rahbar: Juraquliy G.R.)

Annotatsiya:

Ingliz tili fani hozirda barcha bosqichdagi o'quvchilarga o'rgatiladi shuningdek boshlang'ich sinflarda ham ya'ni hozirda 1-sinf dan boshlab o'rgatila boshlaydi va bu davrda ingliz tilini o'rganish bu yoshdagi o'quvchilar uchun biroz qiyin bo'ladi ammo o'qituvchilar buni turli yo'llar bilan o'rgatishadi. Hozirgi kunda statistikalariga yuzlansak 100 foiz o'quvchidan atigi 30 foizi yaxshi o'zlashtira olsa qolgan 70 foizi ingliz tilini o'rganishda juda ham ko'p muammolarga duch kelmoqda. Shuningdek, ushbu maqolam orqali o'qituvchilar o'z o'quvchilariga qay tarzda va qanday qiziqarli usullar bilan o'rgatishini yoritib beraman.

Kalit so'zlar: ingliz atmosferasi, qiziqarli o'yinlar, qo'shimcha kurslar, pantomima, kitoblar

doi: <https://doi.org/10.2024/x25r4c78>

Avvalo bolalarni fanni o'rganish uchun tashqi tomondan ham moslashtirish kerak va bu ularda tilni o'rganishda qiziqishini orttiradi. Buning uchun, birinchidan alohida ingliz tili o'qitiladigan sinf xonalar bo'lishi kerak va xonaga ingliz atmosferasini yoritib berish kerak. Masalan, ekranli doskalar, televizor bu dars davomida bolalarga turli xil inglizcha video lavhalar qo'yib berishda qo'llaniladi chunki ko'p holatlarda bolalar o'qituvchilaridan eshitgandan ko'ra o'zlari ko'rib va jonli haqiqiy ingliz millatlaridan eshitganda o'rganishi va eslab qolishi oson bo'ladi va ularga qarab qiziqishlari ham ortishi mumkin. Va yana turli xil rangli devorlar va devorlarda albom rasmlar, plakatlar bo'lishi kerak albatta bular ingliz tili haqida bo'ladi, misol uchun ingliz alifbosi, sonlar va yana qo'shimchada har kun o'rganib borilayotgan lug'atlar to'plami ham bo'lishi mumkin. Qo'shimcha qilib shuni aytishim mumkinki, nafaqat xonalarda ingliz atmosferasi bo'lishi balki umumiy atmosfera ya'ni maktabda hamma uchun ham ingliz atmosferasi bo'lishi bu ularga juda ham katta yordam berishi mumkin ya'ni ingliz tilida so'zlashuvlar va hokazo.

Qiziqarli o'yinlar, bu qismi bolalarning eng yoqtiradigan tomonidir va bu ularga tilni o'rganishda yordam beradi ya'ni siz bolalarni darsga qiziqtirish uchun zerikib qolmasliklari uchun turli xil qiziqarli o'yinlar tashkillashtirishingiz kerak va bu yana ularning hayolini darsga qaytarishda ham yordam beradi va yana bolalarning o'qituvchiga bo'lgan hurmatini ham oshirishi mumkin ya'ni ular shu dars bo'lishini intizorlik bilan kutishadi.

O'yinlar turli xil ko'rinishda o'ynaladi. Masalan individual, juftlik va guruh bo'lib o'yin tashkil qilinadi. Individual o'yin bolalarga har biri o'z fikrini

¹ Xushbaqova Muhayyo Muhiddin qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

individualniy yoritib berishga umuman o'z fikrlarini aytishda yordam beradi bu esa nutqni shakllantirishi mumkin va bu ingliz tili darsligida umuman til o'rganishda katta yordam beradi. Juftlik va guruh bo'lib o'ynash esa bolalarga boshqalar bilan madaniyatli, chiroyli muloqot qilishda yordam beradi, misol uchun hamjamiyatli bo'lishni va boshqalarning ham fikrini hurmat qilib qo'llab quvvatlashda yordam beradi va yana bu kelajakda ham ishida o'qishda katta yordam beradi. Bundan tashqari ingliz tilini o'qitishga bog'liq turli xil lug'aviy o'yinlar mavjud. Masalan so'z o'yini ya'ni zanjir o'yin bu bolalarning so'z boyligini oshiradi va chiniqtiradi ham.

Shubhasiz, maktabda tilni o'rgatishda yetarlicha bilimga malakaga ega o'z ishlarining usta o'qituvchilari dars beradi. Ammo yanada ko'proq bilimga ega bo'lish maqsadida bolalar qo'shimcha kurs, darslarga borib turishi kerak buning ham tilni o'rganishda ahamiyati katta. Qo'shimcha kurslar bolalarning bo'sh vaqtlarini unumli foydalanishida va tajribalarga ega bo'lishida yordam beradi. Va bu o'z navbatida o'qituvchilarga ham ko'proq tajribalarga ega bo'lishida yordam beradi. Qo'shimcha kurslar orqali o'quvchilar maktabda o'tilganlarni takrorlashida yoki aksincha o'tilmagan yangidan yangi ma'lumotlarni o'rganishida ham yordam beradi. Bilganingizdek kurslar ikki xil bo'ladi ya'ni online va offline kurslardir. Ikkisi ham birdek o'qitiladi foydasi ham birdek. Hozirda online kurslar ham rivojlangan va bu masofadan turli xil viloyat va hatto davlatlardan turib ham o'qitish va o'qish imkoniyatini beradi. Offline kurslarda esa bolalarga ko'proq amaliy o'rganishda foyda beradi chunki bazilar ko'rib tinglab o'rganishi oson bo'ladi.

Pantomima (pantomime) bu so'zsiz imo ishora orqali tushuntirish demakdir ya'ni o'qituvchi o'quvchilarga mimika orqali biror nimani tushuntirishga harakat qilishi yoki aksincha misol uchun o'quvchi o'qituvchi tomonidan berilgan vazifani so'zsiz imo ishora mimika orqali tushuntirib tasvirlab berishidir. Bu aslida miyani charxlashda yordam beradi va buni til o'rganishda ham foydasi bordir. Ya'ni bolalar nafaqat eshitib ko'rib, yoki shunchaki biror lug'aviy tushuntirishlarsiz tushuna bilishlari ham bir mahoratdir ya'ni fikrni charxlashga yanada chuqurroq fikrlashga chorlashga undaydigan usuldir. Bundan tashqari buni (pantomima) qiziqarli o'yindek o'tqazsa ham bo'ladi ya'ni bu ham huddi zanjir o'yini ko'rinishida bo'ladi. Masalan, o'qituvchi bitta o'quvchini doskaga chiqaradi va unga albatta bitta inglizcha so'z aytadi va u sinfda o'tirgan boshqalarga o'sha so'zni so'zsiz mimiki bilan tushuntirib tasvirlab berishga harakat qiladi va bu so'zni topa olgan o'quvchi undan keyingi ishtirokchi sifatida doskaga chiqib o'yinni davom ettiradi va shu holatda zanjir o'yini hosil bo'ladi. Pantomima qismi, o'yini bolalarning so'z boyligini va mahoratlarini oshirishda ahamiyati kattadir.

Kitoblar-inson hayoti davomida albatta har bir ishi uchun kitoblardan ham foydalanish kerak ya'ni ulardan maslahat, tavsiya va yoki hattoki bilim va qo'shimcha yangiliklarni ham bilish maqsadida foydalanib turish kerak va albatta siz bilganingizdek kitob bilimni charxlaydi. Endi kitoblarning til o'rganishdagi ahamiyatiga keladigan bo'lsak bunda ham juda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun nutq ravon bo'lishi uchun ovozini chiqargan holatda turli xil ingliz tilida yozilgan matnlarni kichkina hikoyachalarni o'qishning nutq qismida foydasi kattadur. Yoki bundan tashqari siz va biz bilganimizdek lug'aviy kitoblar ham til o'rganishda juda kerak chunki kitoblarda bitta so'zning bir nechta manosi ham ko'rsatib yoritib bergan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. N Xamidova, G Bobonazarova - *Easy ways of learning english, Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 71-73
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=N06yu0YAAAAJ&citation_for_view=N06yu0YAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
- [2]. GR qizi Juraquliy - *The role of communicative approach in teaching foreign languages, innovative trends in science, practice and education" 2023*
- [3]. РД Журакулов, Г Журакулий - *Семантико-структурные поля фразеологии узбекских народных сказок* *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2023
<http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1495>
- [4]. <https://oimurschool.ru/uz/nashi-deti/yazykovye-igry-na-urokah-angliiskogo-yazyka-igry-i-uprazhneniya/>
- [5]. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinflarda-ingliz-tili-oqitishning-innovatsion-usullari>